

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi
Guliston Davlat Universiteti
Filologiya fakulteti**

KURS ISHI

Fan: *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*

Guruh: 7.12

Topshirdi: *Safarova Gulsanam.*

Qabul qildi: *Mamatqulov Muzaffar.*

Guliston-2014

Mavzu:

XVI-XVIII asrlarda adabiy muhit va ijodiy maktablar.

Reja:

Kirish.

1.XVI-XVIII asrlarda ijtimoiy hayot.

2.XVI-XVIII asrlarda ijodiyot.

3.Bu davrlarda taskirnavislik.

Xulosa.

O'zbek adabiyoti o'z boshidan murakkab davrlarni bosib o'tdi. Adabiyot san'at ilm-fan va ma'rifat o'zining kamolot bosqichiga yetdi. Temuriylar barpo etgan markazlashgan davlat hukmdorlari o'zining faoliyatlari bilan, nodir asarlari bilan o'zbek adabiyotida o'ziga xos ijod maktablarini yaratdilar. XVI asr boshlariga kelib Temuriylar davlatini Dashti Qipchoqdan kelgan Abulxayrxon avlodidan bo'lgan Muhammad Shayboniyxon bosqini Temur davlatini inqirozga tutishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari bu davrda Movaraunnahr va Xurosondagi o'zaro ichki nizolar, taxt uchun kurash, katta davlatning asta-sekin parchalanib ketishi umumiy ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatdi, ilm-fan, san'at adabiyot sohalaridagi avvalgi qo'lga kiritilgan yutuqlar, ma'naviy meros katta mavqega ega bo'lib bo'rdi. Ko'pgina olim va shoirlar donishmandlar o'z davridagi urush-janjallardan panoht izlab Samarqandga, so'ng Buxoroga intildilar va bu ma'lum madaniy rivojlanish darajasini saqlab turishga imkon yaratdi.

Shu bilan birga temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonda barpo etgan davlati ham madaniy jihatdan Temuriylar ananasini davom ettirishga intildi. Ko'pgina olimlarsan'atkorlr Boburiylar saroyidan panoht topdilar. Boburiylar o'zlarini Temuriylar davri madaniyatining merosxo'ri, davomchilari deb bildilar. Ayniwqsa Boburiylardan Akbarshoh, shohjahon, avrangzeb davrida Hindistonda Markaziy osiyo ma'naviy qadryatlariga asoslangan musulmon madaniyati keng rivoj topdi va muhim yutuqlarni qo'lga kiritdi. Boburiylar davri madaniyati o'z navbatida Hindiston madaniyati rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'satdi. Movaraunnahr, Xuroson hamda

Hindistondagi madaniy hayot ma'lum vaqtga qadar o'zaro ta'sir va yaqin aloqalar davrini boshidan kechirdi.

Bu davrlarda Turkistonda hukmronlik uchun o'zaro kurashlar boshboshdoqlik, parokandalik avj oldi. Mustaqil xonlikka ajralib chiqqan Xiva va Buxoro xonligo'rtasida hamda ularning o'zidagi ichki ziddiyatlar nihoyatda kuchayib uzoq vaqt davomida notinchlikni boshdan kechirdilar. Bu hammasi madaniyatga salbiy tas'sir etmay qolmadi. Nisbiy tushkunlik, oldingi yutuqlarni yo'qotish, susayish bu davr madaniyatini tasvirlovchi xislatlar bo'lib qoldi va madaniyat arboblari shunday sharoitda jon saqlashga intildilar. Madaniyat sohasidagi ayrim o'zgarishlar, yangiliklar asosan Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlari bilan bog'liq bo'ldi. Temuriylar davrida rivoj topgan madaniy boyliklar ta'sirida yangi ma'naviy- madaniy qadriyatlar vujudga keldi, ayniqsa, adabiyot, san'at, qisman ilm-fan, xususan, tarix fanida ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Tasavvuf bu davrning dunyoqarashi, tasavvuri va ma'naviyatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbek va fors tilida qator tarixiy, adabiy, she'riy asarlar yaratilgan.

Bu davrlarda Turkiston xalqlari madaniyati, san'ati, ma'naviy hayoti asosan uch mustaqil xonlik hududida rivojlandi. Bu xonliklarda ko'plab iste'dodli tarixchilar, taskiranavislar, xattotlar, musiqashunoslar, musiqa ustalari, shoir va adiblar yashab, barkamol asarlar yaratdilar.

Xullas, madaniy-adabiy hayot uch xonlik doirasida ijtimoiy-tarixiy sharoitga qarab, goh siljishda, goh turg'unlikda, goh tanazzulda bo'lib turdi. Xon va amirlar, hukmron guruh vakillari, mulkdor shaxslar

madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, karvonsaroylar, ziyoratgohlar qurdirardilar.

Bu ilm maskanlarining peshtoq va devorlarida Qur'oni karim, Hadisi hsarifdan keltirilgan oyat va muqaddas yo'l-yo'riqlar bitilgan go'zal yozuv-lavhalardan tashqari, ularning tarhini tuzgan, ishlab chiqib amalga oshirgan hunarpesha me'mor va naqqoshlarning nomlarini ham uchratish mumkin. Masalan, 1619-1636 yillari bunyod etilgan Sherdor madrasasi peshtoqida me'mor Abdujabborning nomiga ko'zimiz tushishi mumkin. Xorazmlik mashhur shoir va tarixnavis Shermuhammad Munisning naql qilishicha, ("Firdavs ul-iqbol" asarida) XVII asrning iste'dodli shoiri mavlono Vafoiy ham shoirlik bilan birga ma'morlik va naqqoshlikda shuhrat topgan.

Bu davrda o'zining o'zbek tilidagi she'rlari bilan mashhur bo'lgan shoir, tarixchi, davlat arboblardan biri Muhammad Solihdir(1455-1535). U Xorazmda tug'ilib boshlang'ich ma'lumotni o'sha yerda olgan. So'ng Hirot shahrida o'z ilmini davom ettirgan, shoiru ulamolar bilan ilmiy ijodiy bahs etib turgan. Xurosonda, so'ng Samarqand, Buxoroda Temuriylar xizmatida bo'lgan. 1507-1510-yillarda Muhammad Solih Hirotida yashab biy muhitga madaniy hayot ichida bo'lgan o'z ijodi bilan adabiy muhitga keng tanilgan. Uning ijodiga Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Lutfiy, Nisoriy kabi shoirlar baho berganlar. XVI-asrning ikkinchi yarmidagi eng yirik shoirlardan Mushfiqiyni ko'rsatib o'tish zarur. Shoir Abdullaxon II davrida saroy shoiri sifatida ma'lum bo'lsada, xalq orasida uning hajviy, hurriyatparvar she'rlari keng tarqalgan.

XVI-XVIII asrlarda o'zbek va tojik tillarida she'riy asarlar bitgan, Turkistonning turli shaharlaridan chiqqan shoir, adiblarni ko'rsatib o'tish

mumkin. Sayido Nasafiy, Turdi Farog'iy, So'fi Olloyor shular jumlasidan bo'lib, ularning ijodi turli yo'nalishda ekanligi o'z davrining tushkunliklari, ziddiyatlari, qiyinchiliklarni o'zida ifodalashi bilan ko'zga tashlanadi. Bu davrda Hindistonda yashab ijod etgan, o'z asarlarini forsiyda yozgan Mirzo Abdulqodir Bedil(1644-1720) chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmundagi she'rlari Turkiston ziyolilari orasida e'tibor qozondi. Umuman XVI-XVIII asrlar ma'naviy hayotida Turkistonda tasavvuf ta'limotlari, xususan, Naqshbandiya, Yassaviya, Kubroviya ta'limotlarining keng tarqalgani ,ularning adabiyot, san'at, ijtimoiy bilimlarga katta ta'sir ko'rsatganini ko'ramiz. San'atkorlar tasavvufdan zamona qiyinchiliklarini yengish, zulm adolatsizlikka qarshi kurash, haqiqiy insoniy munosabatlarni targ'ib qilish yo'lida foydalanishga intildilar.XVI-XVIII asrlar davomida adabiyot, she'riyat bilan bir qatorda tarixshunoslik, fiqh, falsafa, hattotlik ilmi kabi sohalarda ham ijobiy yutuqlar qo'lga kiritildi.

Bu davrda ayrim tarixiy asarlar fors tilidan o'zbek tiliga tarjima etildi. Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy", Abdulla ibn Muhammadning "Zubdat ul-asror"(Asrlar qaymog'i), Fayzulloh ibn Ro'zbekxon Isfahoniyni "Mehmonnomayi Buxoro"("Buxoro mehmoni haqida kitob"), Hofiz Tanish Buxoriyni Abdullaxon II davrining tarixiga bag'ishlangan ulkan asari "Sharafnomayi shohiy"(Shoh sharafi haqida kitob) yoki "Abdullanoma", Muhammad Vafo Karminagiyni "Tuhfai xoniy", Mirmuhammad Amin Buxoriyni "Ubaydullanoma", Muhammad Yusuf Munshiyni "Tarixi Muqimxoniy", Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" kabi asarlarida muhim ahamiyatga molik materiallar berilgan.

Tarixga oid o'ndan ortiq asar ichida Abdug'oziy asarlari o'zbek tilida yaratilgani bilan ajralib turadi. Bu asarlarida o'sha davrning murakkab jarayonlari o'z ifodasini topgan. Shoir va tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asari nazm aralash qofiyalashtirilgan nasrda fors tilida yozilgan bo'lib, asosan Shayboniylarning o'z davlatlarini mustahkamlash uchun olib borgan kurashlar tarixini, siyosiy ijtimoiy masalalarni o'z ichiga qamrab olgan katta asardir.

Tarixshunoslik ilmining ma'lum darajada rivoji albatta boshqa ijtimoiy fanlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrlar davomida ijtimoiy-falsafiy fikr, fiqhshunoslik sohasida ham yangiliklar vujudga keldi. O'z davrining yetuk mutaxassislari yetishib chiqdi. O'z yurti Eronni tashlab ketishga majbur bo'lgan va Buxoroda xonning e'tiboriga sazovor bo'lgan Mirzajon She'roziyning asosiy ilmiy-ma'rifiy faoliyati Movarounnahrda o'tdi. U turli madrasalarda falsafa, mantiq, fiqh ilmlaridan saboq berish bilan birga o'tmish mutaffakirlari Ibn Sino, Faxriddin Roziy, Nasriddin Tusiy, Mir Sayyid Jurjoniy, Davoniy kabilarning turli risolalariga sharx va hoshiyalar yozdi.

Mirzajon Jaloliddin Davoniyning bevosita shogirdi bo'lib, o'zining asosiy ilmiy qiziqishlarini, falsafiy muammolarini hal etishga qaratdi. Uning hoshiylari bilan birga "Fi ta'rifil ilm" ("Ilmlar ta'rifi"), "Anmuzadjul funun" ("San'atlar namunalari"), "Fi aksil mustafa" ("Aks ettirish haqida") kabi qator risolalari ham bizgacha yetib kelgan.

Mirzajonning shogirdi bo'lmish asli ozarbayjonlik Yusuf Qorabog'iy ham XVII da Movarounnahrning eng yirik faylasuf va mantiqshunos olimlardan bo'lib tanildi. Buxoro xoni Imomqulixon e'tiborida bo'ldi. U

Samarqand, Buxoro madrasalarida mudarrislik qildi, falsafa, arab grammatikasi, fiqh, mantiq sohasida qator asarlar qoldirildi.

Qorabog'iy falsafa, arab tili bo'yicha shogirdlar yetishtirdi.

Bu asrlarda tabiiy, ilmiy fanlar o'zining avvalgi an'analarini yo'qota boshladi, ularning rivoji brogan sari susayib bordi. 1593-yilda Amir Ahmad Roziyning "Haft iqlim" nomli geografik-biografik lug'ati deyarli shu yillarda Mutribiyning "Taskirat ush-shuaro"siga ilova etilgan dunyo xaritasi vujudga keldi. Ayrim tarixiy ma'lumotlarda aytilishicha bu davrda ham tibbiyot sohasida qator amaliy ishlar, turli tabiblar, ko'z doktorlari faol ish olib brogan. (Sulton Ali degan tabib "Tabobat ilmi bo'yicha qo'llanma") yozib qoldirgan,yirik shaharlarda kasalxonalar mavjud bo'lgan.Adabiyot, she'riyat bilan bog'liq holda musiqashunoslik ilmi rivojiga ham e'tibor berilgan.Buxoroda Mavlaviy Kavkabiyy musiqa ilmi,maqomlar bo'yicha risola yozgan.

Darveshali Changiy va uning "Risolai musiqa" asari. Musiqa madaniyatimiz ham uzoq tarixga ega. Uritm, og'zaki lirik sherlarning paydo bo'lishi va musiqaga moslashishi bilan paydo bo'lib, asrlar osha takomillashib, taraqqiy topib borgan.Musiqa asboblari kashf etilib, istedadli sozandalar,hofizlar ijrosida she'riy asarlarga bastalangan kuylar ijro etilgan.

Musiqa san'ati badiiy ijodning,xususan,lirik she'riyatning doimiy yo'doshi bo'lib kelgan. Shu tufayli O'rta Osiyo xalqlari musiqa san'ati va uning ishtirokchilariga bag'ishlangan asarlar, risolalar yaratganlari tabiiy bir holdir. Shunday nodir asarlardan biri "Risolai musiqa"dir.Uning muallifi musiqashunos Darveshali Changiy edi.Changiy laqabining berilishi uning ijrochi, cholg'uchi san'atkor bo'lganligidan dalolat beradi.

Darveshali Changiy 12 maqomdan-bobdan iborat risolasida O'rta Osiyo xalqlari musiqa shaydolari tomonidan kashf etilib, hofizu xonandalar, sozandalar uchun xizmat qilib kelayotgan o'nlab cholg'u asboblari ularda o'z mahoratlarini namoyish etib shuhrat taratgan san'atkorlar, musiqa ilmi, san'at haqida risolalar yozgan olimlar(jumladan. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy) tog'risida muhim ma'lumotlar keltiradi. Risolada aruzga asoslangan shashmaqom yo'llari, ijro usullariga doir fikrlar ham bayon eilgan. "Risolai musiqa"ni musiqa ilmi va tarixi, san'atkorlar o'tmishi, musiqa ijrosida shuhrat topgan iste'dod egalari haqidagi tazkira deb atasa ham bo'ladi.

Kitob yozish,to'plash,bezash sohasidagi an'analar XVI-XVIII asrlarda ham davom etgani, ayrim xonlar maxsus kutubxonalar yaratgani va unda Ko'plab qo'lyozmalar to'planganligi haqida ma'lumotlar saqlangandir. Masalan, Shayboniylardan AbdullaxonII,Abdulazizxonlar, Ashtarxoniylardan Subxonqulixon o'z saroylarida-Buxoroda kata kutubxonalar tashkil etganlar.Umuman, kitob san'ati,husnixat-xattotlik,minatura sohasida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Buxoro maktabi faol ravishda o'zini tanitdi.XIV asrdan boshlab shakllanib kelgan Buxorodagi husnixat va minatyura XVI-XVII asrlarga qadar Sharqda o'z yetakchi mavqeini saqlab keldi va boshqa musulmon Sharqidagi bu san'at rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.Bun davrlarda ijod etgan mashhur husnixat va minatyura ijodkorlaridan Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xevraviy, Mahmud ibn Ishoq ash-Shihobiy, Abdulla, Muhammad Murod Samarqandiy,Do'st Muhammad Buxoriy kabilarni aytish mumkin. Do'st Muhammad Buxoriy husnixat nazar yasi bo'yicha maxsus risola ham yozgan.Xususan bu davrlarda "Tarixi Abdullxayrxon" ("Abdulxayrxon

tarixi”), “Tavorixi guzidai nusratnoma” (“G’alaba haqida tanlangan tarixlar”), Alisher Navoiy asarlari ro’yxati kabilarning chiroyli ko’chirmalari va ularga ishlangan miniatyuralar o’z davri san’atining oliy namunalari sanaladi. Movaraunnahr san’ati, ilm-fan madaniyati bu asarlarda ham boshqa musulmon Sharqi, Eron, Turkiya, Qoshg’ar, Hindiston kabi mamlakatlar bilan yaqin aloqada bo’ldi, o’zaro ta’sirda rivoj topdi. Boshqa o’lkalardan Movaraunnahrga turli ziyoli, madaniyat arboblari kelib o’z faoliyatini davom ettirganidek, Buxoro, Samarqand kabi turli shaharlardan chiqqan olim, donishmand, san’at arboblari boshqa mamlakatlardagi madaniy oqimda ishtirok etdilar. XVI asrning ikkinchi yarmida buyuk Boburiy shohlardan Akbar saroyiga Samarqand ustalari Muhammad Murod va Muhammad Nodirlar safarbar etilgan edi. Erondagi qator olim-fozillar, sanatkorlar diniy sharoitning noqulayligidan qochib yoki o’z ixtiyorlari bilan Movaraunnahr shaharlariga kelib joylashib qoldilar. Shoirlar Fayzulloh ibn Ro’zbehon, Zayniddin Vosifiy, mashhur xattotlar Xo’ja Mahmud, Said Ahmad Mashhadiy, yuqorida qayd elilgan Mirzajon Sheroziy, Qorabog’iy kabilar shular jumlasidandir.

Shu bilan birga bu davrda turkiy o’zbek tilidagi badiiy adabiyot namunlarining ko’paya borganini, adabiyot, shariat ma’naviy hayotning eng muhim asosiy sohasiga aylanib, an’anaviy lirik asarlar bilan birga shoir, adiblar dunyoviy hayot qiyinchiliklarini, diniy taassubning kuchayishiga bo’lgan noroziliklari, so’fiyona fikrlarini she’riyat orqali ifoda etishga intilganliklarini ko’ramiz.

Bu davr Mahdumi A’zam, Mirzo Haydar, Abdulg’ozixon, Buxoriy kabi gumanitar ilm vakillari, Mashrab, Turdi Farog’iy kabi mashhur

shoirlarni yetishtirdiki, ular asarlarida o'z zamonasining saboqlari, istaklari, alamlarini aks ettiradilar.

Mirzo Muhammad Haydar Dug'lot-Markaziy Osiyoning XVI asrdagi atoqli muarrix, adibi va davlat arbobi bo'lib, mashhur "Tarixi Rashidiy" asarining muallifi sifatida tarix sahifalaridan mustahkam o'rin olgan. Adabiyotda ko'pincha Mirzo Haydar ismi bilan ataladi. Uning ota ajdodlari XIV-XVI asrlarda Mo'g'ilistonda hukm surgan nufuzli dug'lot amirlaridan bo'lib, Chig'atoy xonlari tomonidan in'om etilgan imtiyozlarga va tarxonlik unvoniga ega bo'lganlar, Qoshg'ar viloyatining hokimligi vorisiy tarzda ularning ixtiyoriga topshirilgan edi.

Mirzo Haydarning otasi Muhammad Husayn Mo'g'uliston xoni Sulton Mahmudxon (1487-1503) bilan yaqin munosabatda bo'lib, 1493-yili uning singlisi Xo'b Nigorxonim (Yunisxonning kichik qizi)ga uylangan va ko'ragon unvonini olib, 1495-yili O'atepa hokimligiga tayinlangan. Shu bilan birga bir necha yil Toshkentda Sulton Mahmudxon huzurida yashgan va Mirzo Haydar bu shaharda hijriy 905(1499-yil avgust-1500)yili tavallud topgan. Yunusxonning o'rtancha qizi Qutlug' Nigorxonim Zahiriddin Muhammad Boburning onasi ekanligi bilan Mirzo Haydar Boburga qarindosh bo'ladi(xolavachcha)dir.

Ba'zi adabiyotlarda qayd etilishicha Mirzo Haydarning "Jahonnoma" nomli turkiy tilda nazm bilan bitilgan asari ham bor. Muallif turkey va forsiy tillarda she'rlar yozganligi "Tarixi Rashidiy"ning o'zida keltirilgan she'riy parchalardan ham ko'rinadi hamda Mirzo Haydarning Bobur aytganday, "ta'bi nazmi ham bo'lganligi"ni isbotaydi.

Markaziy Osiyoning XVII asrdagi ijtimoiy va ilmiy tafakkurining yirik namoyondasi Ibn Muhammadjon Yusuf al-Qorabog'iy al-

Muhammad Shohiy aslida ozarbayjonlik bo'lib, o'zining buyuk salaflari asarlaridagi ba'zi ilg'or an'analarni davom ettira olgan ijodkordir. Yusuf Qorabog'iyning barcha asarlari Samarqand vaBuxoroda yozilgan.

Olimning “ Risolai botiniyya” risolasida insondagi nafsoniy kuchlar, odamdagi ruhiy olam haqidahikoya qilingan. Bu asar “ Yetti jannat”nomi bilan ham mashhurdir. “Risolai xilvatiyya”asari arab tilida yozilgan bo'lib,olti qismdan iborat. Xilvatlar esa o'z navbatida “to'xtalish”larga bolingan.Asar davomida shoir o'zidan oldin yashab o'tgan mashhur allomalar bilan u yoki bu masala haqida munozaralar qilgan.

Abulg'oziyxon “ Shajarayi turk ”va “shajarayi tarokima” nomli kattailmiy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy asarlarni ijod etgan o'zbek tarixnavis olimi, uzoq vaqt Xiva xonligini boshqargan yirik davlat arbobidir. Abulg'oziyxon adabiyotdan ham xabardor bo'lgan. Tib ilmini yaxshi o'rganganbo'lib, bu borada “ Manofe' ul-inson” nomli maxsus tibbiy asar ham yozgan.

Abulg'oziyxon tomonidan keltirigan ma'lumotga qaraganda,u she'riyatni yaxshi bilish bilan bir qatorda arab,fors va turkiy tillarni puxta o'rgangan. Tarix ilmidan ham xabardor bo'lgan Abulg'oziyxon o'zining tarixiy asarlarini tasnif etgan. Abulg'oziyxonning “ Shajarayi tarokima” asari turkmanlar tarixiga oid asar hisoblanadi.

Abulg'oziyxoning Xorazm tarixi bo'yicha o'zbek tilida asarlar yozishi an'anasi Xivada, keying davrlarda atoqli tarixnavis olimlar, ayni vaqtda ajoyib shoirlar Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniylar tomnidan davom ettirildi.

Abulg'oziyxon Xiva xonligida vujudga kelgan ana shu tarixnavislik maktabiga asos solgan olimdir.

Muhammad Sharif ibn Muhammad al-Husayniy al-Alaviy al Buxoriy al-Mavlaviy laqabi bilan mashhur bo'lgan olim XVII asrdagi Movarounnahr mutaffakirlarining yorqin namoyondalaridan biridir. U o'z ijodida yolg'iz falsafaga oid bilimnigina emas, balki tarix, she'riyat, huquq, tilshunoslik kabi sohalarni ham qamrab olgan. Uning bizgacha yigirmadan ortiq asari yetib kelgan va ulardan "Ar-risola ad-davriyya" ("Davriylik haqidagi risola") asari Buxoroda yozilgan.

Faylasufning she'riy devoni ham mavruj. Unda shoirning adabiy merosi to'plangan. Devon turli kotiblar tomonidan XX asrga qadar ko'chirilib kelingan. Bu hol Buxoriy she'riyatiga Movarounnahrning yirik shaharlarida katta qiziqish bilan qaralganidan dalolat beradi. Devonni tadqiq etish bir jihatdan olim dunyoqarashini o'rganishga yordam bersa, ikkinchi tarafdin adabiyotimiz tarixini boyitadi.

Muhammad Buxoriyning arab tilshunosligiga oid asari "Hoshiyai Mavlaviy Sharif bar favoidi Ziyoiyya" ("Mavlaviy Sharifning Ziyoiy foydalarga izohi") deb ataladi. Izohlar "Al-Kofiya" nomli Ibn al-Hojib qalamiga mansub bo'lgan grammatika haqidagi asar sharhiga bitilgandir. Sharh muallifi mashhur shoir va olim Abdurahmon Jomiydir.

XVII asrda ijod qilgan Turdi Farog'iy o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan shoirdir. U XVII asr o'zbek adabiyotida hajviy-tanqidiy yo'nalishning kuchayishida, xalqona uslubning ildiz otib borishida katta ta'sir ko'rsatdi. Uning hayoti va faoliyati Ashtarxoniylar hukmdorlardan Nodir Muhammad va uning o'g'illari-Abdulazizxon hamda Subhonqulixonlar davrida kechdi. Turdi o'zbek va fors tillarini

yaxshi bilardi. U qarigan chog'larida yozgan " Dar mazzamati sipohigari" degan she'rida o'zining asosiy kasb kori sipohiylik ("harbiylik") bo'lganini, shu kasbi bilan uzoq yillar davomida nimalarnidir tama' qilib' shoxlarga xizmat qilganini, lekin oxir-oqibatda hech narsaga erisha olmaganini afsus-nadomat bilan ma'lum qiladi.

Turdi o'z zamonasining eng o'qimishli, sharq adabiyotida mukammal xabardor, hayot jamiyat haqida keng tushunchaga ega bir kishi bo'lib yetishdi. Turdi o'zining salmoqli g'azal va muxammaslari bilan o'zbek mumtoz she'riyatida yangi bir g'oyaviy-badiiy yo'nalishni yuzaga keltirdi. U hayotiy voqea-hodisalarni, real tarixiy shaxslar timsollarini she'rlariga mavzu qilib oldi.

Turdining bizga ma'lum she'rlari uning murakkab hayot yo'li va mashaqqatli ijod bosqichlarini boshidan kechirganligidan dalolat beradi. Uning "Muxammasi turki" asarida avtobiografik lavhalarni ko'p uchratish mumkin.

Turdining adabiy merosi o'n sakkiz she'rdan iborat bo'lib, ulardan o'n ikkitasi g'azal, beshtasi muxammas va bittasi fard turiga oiddir. To'rt yuz o'ttiz to'rt misra hajmidagi bu merosning bir yuz oltmish besh misrasi Subhonqulixon to'g'risidagi mashhur hajviyani tashkil etadi. Biroq shu merosi bilan ham Turdi o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi muhim o'rinni egallagandir.

Turdining lirik g'azallari boshqa shoirlarnikidan o'zining nihoyatda ixchamligi, ya'ni uch-to'rt-besh baytdan iboratligi bilan ajralib turadi.

Turdining tasavvufiy she'rlari ham g'oyat go'zal va falsafiy teran mazmunga boy.

Turdi o'zining tasavvuf bilan bog'liq qarashlarini "Burun" radifi bilan yozilgan turkiy muxammasida shunday bayon etgan:

**Lobaqodur qalbi, qalbining bog'lama iqbolinga,
Bo'lma g'arra oriyat dunyo-vu mulku molinga,
Yod etib go'ru qiyomat, yig'la doim holing,
Bur nazar mo-u manidin, yonib o'z ahvolinga,
Ibrat ila boq, ko'zung tuproqqa to'lmasdan burun.**

Turdi g'azallarining aksariyati hali hech kim qalamga olmagan, o'tkir ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-axloqiy mavzularga bag'ishlangan. Ayniqsa shoirning "Tor ko'ngilli beklar" g'azalida yurtni boshqarayotgan beklarga murojaat qilib, ularni keng fe'lli, o'zaro ittifoq bo'lishga, bir-birini qabilachilik belgilariga qarab belgilamaslikka chaqirishi, uni o'z davrining eng yuksak fikrli vatanparvar va haqiqiy insonparvar inson ekanligidan dalolat beradi.

Turdining shoh asari, albatta Subhonqulixon haqidagi hajviy muxammasidir. Turdi bu asarida Subhonqulixon qiyofasida qattiqqo'l, johil shoh timsolini yaratishga harakat qilgan va bunga erishgan.

Turdi o'zbek hajviyotini bu asari bilan Alisher Navoiydan keyin yangi bir yuksaklikka ko'tardi.

Turdi Shayx Sa'diy g'azaliga bog'lagan muxammasda esa o'z ulug' salafi asarida insonparvarlik g'oyalarini yanada chuqurlashtirdi.

**Bargi har toza gule shohidi maddi nazarand
Varaqe safhai manzur ziahli basarand**

Turdi muxammasining yana bir qimmatli tomoni shundaki, uning shu muxammasi tufayli Sa'diyning boshqa qo'lyozmalarida yo'q g'azali bizgacha yetib kelgan.

O'zbek mumtoz adabiyotining XVII arsning ikkinchi yarmi-XVIII asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyondalaridan biri Boborahim Mullo Vali o'g'li Mashrabdir.

Boborahim Mashrab haqidagi eng muhim adabiy biografik asar ya'ni manba "Qissasi Mashrab"("Qissasi shoh Mashrab") asaridir.

Mashrab she'riyatining boshqa shoirlardan farqi shundaki, u ilohiy ishqni (Olloh jamoliga erishishni) oshkora kuylaydi.

Boborahim Mashrab mumtoz adabiyotimiz buyuk namoyondalarining ilg'or an'alarini o'rganib, yirik shoir bo'lib, shakllandi.

Mashrabning adabiy-ijodiy merosida diniy va tasavvufiy g'oyalar ham, o'sha asrlarda ayniqsa keng tarqalgan qalandarlik tariqati g'oyalari ham sezilarli o'rin egallaydi. Mashrabning ijodiy kamolotida ayniqsa Navoiy merosining ijobiy ta'siri katta bo'ldi. Mashrab Navoiy merosidan lirikada jiddiy ijtimoiy mazmun ifodalashni norozilik ohanglari muhabbat mavzuidagi she'rlar jismiga joylab yuborish mahoratini ham o'zlashtirdi, ijodiy rivojlantirdi.

Mashrab she'riyatida "ko'z yoshi", "baxti qaro", "dard ahli"ga, "g'am ahli"ga hamdardlik g'oyalari takrorlanishi bejiz emas.

Tasavvuf adabiyoti an'alariga beqiyos hissa qo'shgan va kamol toptirgan o'zbek mumtoz adabiyotida So'fi Olloyorning o'rni nihoyatda kattadir. Uning she'rlarida dunyoviy ishq-muhabbatni ham to'lib-toshib vasf etgan. U o'z she'rlarida so'fiylikning axloqiy masalalarni keng targ'ib qildi.

So'fi Olloyorning masnaviy ilohiynoma asarlari ichida avval forsiy tilda keyin o'zi tomonidan turkiy tilda ham nazm silkiga tushgan "Sabot ul-ojizin" asari ham alohida ahmiyatga ega.

"Sabot ul-ojizin" (aqida, e'tiqod, ixlos ishonch) haqidagi kitobdir. So'fi Olloyorning saksonga yaqin lirik she'rlari mavjud.

XVI-XVIII asrlarda o'zbek adabiyoti rivojlanishi bilan bir qatorda tazkiranavislik ham birmuncha jonlandi va kamol topdi. Adabiy tazkiralarda unga kiritilgan ijodkorning ismi, taxallusi, nibasi, qayerdanligi, tabiatdagi ba'zi xususiyatlari, qay darajada shuhrat topganligi, biografik ma'lumotlar keng va tor ma'lumotlar keltirilib, she'rlaridan ma'lumotlar keltiriladi. Ba'zi adabiy tazkiralarda tazkiranavisning sharh va ma'lumotlari nasrda, ba'zilar esa nazmda berilgan.

Mutribiy va uning "Tazkirat ush-shuaro" asari. Bu tazkira XVII asr boshlarida Samarqandda shoir va tazkiranavis Sulton Muhammad Noyi Mutribiy tomonidan yaratildi. Mutribiy tazkira muallifining taxallusi bo'lib, uning musiqaga, san'atga daxldor shaxs ekanligini ham ko'rsatadi. Uning tazkirasida fors-tojik tilida O'rta Osiyoning Axsikat, O'ratepa, Toshkent, Sayram Hisor, ko'proq Buxoro va Samarqandda mashhur bo'lgan 320ga yaqin shariyat ahllari haqidagi biografik adabiy ma'lumotlar keltirildi. U shoirlarni abjad alifbosi asosida joylashtiradi, ulardan keltirilgan she'rlarning vaznlarini ham ko'rsatib o'tadi. Bu tazkirada uch tilda –turk-ozarbayjon, fors va arab tillarida erkin qalam surgan buyuk ozarbayjon shoiri Mavlono Fuzuliy haqida alohida zikr bor: masalan bu o'rinda Mutribiy "Fuzuliy Badodning kuchli turkigo'y shoirlaridandir. Men uning turkiy devonini ko'rib, juda latif va mazmunli

she'rlarini mutolaa qildim, turli she'rlaridan birini tazkir uchun ko'chirdim (she'r) deb shoirning "orzu" radifli g'azali matnini keltiradi.

Mutribiy "Tazkirat ush shuaro"dan tashqari, chet el safarlarida yiqqan boy adabiy materiallari asosida "Nusxayi zeboi Jahongir" haqidagi "Xotirotu Mutribiy" asarlarini ham bitgan. Bu adabiy manbada Mutribiy Shimoliy Hindistonda shuhrat qozongan, ikki tilda asarlar yozgan shoirlar to'g'risida ma'lumotlar beradi.

"Muzakkir ul ashob" tazkirasi. Bu tazkira Muhammad Bade' Maleho Samarqandiyning qalamiga mansub bo'lib u zamonasining iste'dodli tazkiranavis olimidir.

"Muzakkir ul ashob" tazkirasi XVII asr oxirlarida yaratilgan bo'lib, unda ikki yuzga yaqin shoir haqida ma'lumot keltiriladi. Tazkira muallifining aytishicha, u o'z tazkirasiga kiritilgan shoirlarning deyarli hammasi bilan suhbatdosh bo'lgan, ular haqida ishonchli ma'lumotga ega. Tazkirada XVII asrda yashab, ijod etgan, Sayido Nasafiy, Nozim Hiraviy, Boborahim Mashrab kabi mashhur shoirlar haqida muhim ma'lumotlar bor. Samarqandiy, Boborahim Mashrab Andijonda tavallud topib, Namanganga o'qishga brogan, darveshsifat iste'dodli shoir bo'lgan deb tazkirasida yozadi.

"Mazhar ul-musannifin". XVIII asrning birinchi-ikkinchi yarmida yaratilgan Muhammad Amin ibn Nurmuhammad Nasafiy ham "Mazhar ul-musannifin" nomida tazkira yozdi. Bu asarda XVIII asrda Buxoro amirligi shaharlarida kechgan tarixiy voqealarning bayoni bilan birga Buxorolik, Samarqandlik, Qarshilik shoir, olim, adiblar haqida ham so'z yuritilib, ularning kasb-kori badiiy ijod sohasidagi iqtidoriga doir ma'lumotlar keltiriladi. Unda Mirza Muhammad Munshiy, Mirzo Afzal, Fohir,

Ra'noiy, Ishraty, Sayid Xo'ja Nasafiy, Aziziy, Safoiy, mavlono Shavqiy, Rizoiy kabi hunarmand shoirlar xususida so'z boradi. Bu tazkirada XVIII asrda yaratilgan ba'zi epik asarlar, dostonlar haqida ham ma'lumotlar bor. Xullas bu tazkira orqali Buxoro amirligi yirik shaharlaridagi ziyolilar, hunarmand shoirlar to'g'risida muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

“Muzakkiri ahbob” tazkirasi. Hasanxo'ja Nisoriy qalamiga mansub bo'lib, bu kishi taniqli o'zbek shoiri va davlat arbobi Xojaning o'g'li bo'lgan.

Tazkira maqola, to'rt bob va xotimadan tashkil topgan. Tazkirada Afg'oniston, Eron, Turkiya va Sharqiy Turkiston, Hindistonda yashab qalam tebratgan ikki yuz sakson sakkizta shoir haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Bu tazkira Abdullaxon II ga bag'ishlangan asarda mavlono Isfaxoniy, Amir Mirzo Mashhadiy, Mavlono Muhammad Jomiy, Hofiz Kamol Turbaty kabi shoirlar ijodi haqida ma'lumot keltirilgan.

Shunday qilib, XVII asrlarda forsiy va turkiy tildagi tazkirachilik an'analari davom etdi. Bunda ayniqsa Alisher Navoiy “Majolis un nafois” asarining ta'siri sezilarli darajada ko'zga tashlandi. Yuqorida qisqacha zikr etilgan tazkira namunalari XVI-XVIII asrlarda turli hududlarda yashab, ijod etgan qalam sohiblarining hayoti va adabiy merosini o'rganishda muhim, ilmiy, adabiy manbalardan sanaladi.

Xullas XVI-XVIII asrlardagi adabiy muhit, adabiyot, she'riyat bir qancha mashaqqatli davrlarni o'z boshidan kechirgan bo'lsa-da, to'xtab qolgan emas, balki yanada rivojlandi va kamol cho'qqisiga yetdi. Bu cho'qqiga yetishishda albatta bu davrda ijod etgan qalam ahllari o'rinlari beqiyosdir. Bu davr adabiy rivojlanish keyingi davr bosqichlariga poydevor bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Ma’naviyat yulduzlari”, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent-2001.
2. “O’zbek adabiyoti tarixi”, R. Orzibekov. O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiy jamg’armasi nashriyoti. Toshkent-2006
3. “O’zbek adabiyoti tarixi” IV tom . Toshkent-1978.
4. Hasanxo’ja Nisoriy “Muzakkiri ahbob”, Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent-1993
5. “Adabiyot” B. To’xliyev.
6. Google.ru, internet ma’lumoti